

16. Xalq xunarmandchilik turlari, uning tarixi.
17. Me'morchilik san'ati tarixi.
18. Me'morchilik san'atining qadimiy va zamонави uslublarning qo'llanishi.
19. Duradgorlik kasbi tarixi.
20. Duradgorlik soxalari.
21. Naqqoshlik san'ati, uning tarixi va uslublari.
22. Yog'och o'ymakorlik san'atini, uning tarixi rivojlanish bosqichlari.
23. Ganch o'ymakorlik san'ati, uning tarixi.
24. Tosh o'ymakorligi san'ati tarixi, o'ozirgi vaqt dagi imkoniyatlari.
25. Kulolchilik tarixi, maktablari, maxsulotlari turlari.

Fan dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti Didaktik vositalar

Didaktik vositalar: zardo'zlik jihozlar, ip turlari namunalari, duradgorlik asbob-uskunalar, texnologik jarayon kartalari, tarqatma materiallar.

Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska-Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).

Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati Asosiy adabiyotlar


1. M.A.Maksumova, Q.M.Abdullayeva. Xalq xunarmandchiligi.- T.: TDPU, 2008.
2. Q.M.Abdullayeva, M.A.Maksumova, M.Raximjanova Gazlamaga badiy ishlov berish.- T.: "Cho'lpox", 2011.

Qo'shimcha adabiyot

1. YE.GlinskaY. Azbuka vishivaniY.- T.: "Mehnat", 1994.

Elektron ta'lim resurslari

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi

BD-5112100- 3.07

2016-yil 25 08



Oliy va o'rta maxsus ta'lif
vazirligi

2016-yil 25 08

XALQ XUNARMANDCHILIGI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:

100 000 – gumanitar

Ta'lif sohasi:

110000 – pedagogika

Ta'lif yo'nalishi:

5112100 – mehnat ta'lifi

Toshkent – 2016

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2016-yil "22" 6 dagi
355-sonli buyrug'ining 2-ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'naliishlari bo'yicha o'quv-uslibiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashining 2016-yil "2" 6 dagi "3" -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi va turdosh oliy ta'lif muassasalari bilan kelishildi.

Tuzuvchi:

G'.Abduqodirov - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

X.T.To'lqinova - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Taqrizchilar:

M.Q.Muxliboyev - Guliston davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

Z.D.Parmanova - Sergeli tumani 304 – umumta'lif maktabining mehnat ta'limi o'qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslibiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2016-yil "14" 04 dagi "10"-sonli bayonnomasi).

KIRISH

Mazkur o'quv dasturi Mehnat ta'limi yo'nalishiga mo'ljallangan bo'lib, bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarni milliy xunarmandchiligidan tarixi, uning yo'nalishlari, rivojlanish bosqichlari, tarmoqlari bilan tanishtirish, shuningdek, o'zbek milliy xalq xunarmandchiligining: yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik, naqqoshlik, zardo'zlik, kashtado'zlik, gilam to'qish kabi sohalari sirlarini o'rgatish, milliy qadriyatlarimizni ardoqlash, ular bilan faxrlanish, g'ururlanish xislarini rivojlantirish, avloddan avlodga o'tib kelayotgan xalq xunarmandchiligi ustalarining munosib davomchilari bo'lism, yaratuvchanlikka, go'zallikka intilish kabi tuyg'ularni tarkib toptirishdan iboratdir.

Fanning maqsadi va vazifalari

Fanning maqsadi - bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarini o'z kasbining ustasi qilib tarbiyalash, ularga boy milliy qadriyatimiz, urf-odatlarimiz, an'analarimiz va xunarmandchiligidan tarmoqlarini: naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik, zargarlik tarmoqlarini qayta tiklash va rivojlantirish bosqichlari bilan tanishtirish.

Fanning vazifasi - qo'lda bajariladigan ishlar uchun ish o'rinnarini tashkil qilish, qo'l ishlarini bajara olish, kashta tikish usullarini, zardo'zlik, quroqchilik texnikasini to'g'ri tanlay olish ko'nikmalarini hosil qilishdir.

Fan boyicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qoyiladigan talablar

- xalq xunarmandchiligi xaqida umumiyligi tushunchalar; milliy xunarmandchilik asoslari; turli millatlar xalq hunarmandchiligi turlari *to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak;*

- o'zbek milliy xalq hunarmandchiligi turlari, kashtachilik tarixi, foydalilaniladigan materiallar, asbob uskunalar, kashta tikish texnologiyasi; zardo'zlik tarixi, foydalilaniladigan materiallar, asbob uskunalar, zardo'zlik tikish usullari va texnologiyasi; do'ppichilik tarixi va taraqqiyoti, o'ichov olish va andoza tayyorlash, foydalilaniladigan materiallar, asbob uskunalar, do'ppi tikish usullari va tayyorlash texnologiyasi; quroq tikish usullari va tarixi, gazlama tanlash, andoza tayyorlash, tikish texnologiyasi; duradgorlik texnologiyasi haqidada ma'lumot, yog'och o'ymakorligi texnologiyasi; chilangularlik texnologiyasi, pichoqchilik texnologiyasi, sandiqdo'zlik texnologiyasi, naqqoshlik texnologiyasi, ganchkorlik texnologiyasi, zargarlik texnologiyasini *bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi kerak;*

- xalq hunarmandchiligi usulida buyum tayyorlash; xalq hunarmandchiligidan zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirish; xalq hunarmandchiligi uchun materiallar tanlash; tikuv buyumlarini zamonaviy dizayn asosida mustaqil tayyorlay olish; xalq hunarmandchiligi uchun kerakli asbob uskunalarlardan foydalanish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

Fanning o‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatidan uzviy ketma-ketligi

Ushbu fanni o‘qitishda “Chizma geometriya va muxandislik grafikasi”, “Hayot faoliyatini xavfsizligi”, “Materiallarni kesib ishlash, asboblar va stanoklar”, “Texnologiya va dizayn”, “Servis xizmati” va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lab olib boriladi.

Dasturda berilgan mavzular talabalarni ko‘proq, mustaqil fikrashga va ilmiylikka, ijodkorlikka, xar bir bajariladigan ishga ijodiy yondashishga yunaltirilgan qilib tanlangan.

Fanning ta’limdagisi o‘rnini

Mazkur fan umumiy o‘rtalama maktablari o‘quvchilarida vatanimizning boy tarixiy meroslarini, xalq xunarmandchiliginini va xalq amaliy bezak san’atini yanada rivojlantirish kabi masalalarini mehnat ta’limi darslarida qo’shib olib borish yaxshi natijalarini beradi.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning “Xalq xunarmandchiligi” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim axamiyatga egadir. Fanni o‘qitishda plakatlar, chizmalar, namunalar, yo‘riqnomalar texnologik xaritalar, ko‘rgazmali texnik vositalardan «kompyuter texnikasi, kinofilm, videofilm, diafilm, slayd va elektron versiyalardan» yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish, bilim ko‘nikma va malakalarni hosil qilish ko‘zda tutiladi.

Asosiy qism

Fanning nazariyi (lektsiya) mashg‘ulotlari mazmuni

Xalq xunarmandchilik san’ati haqida umumiy ma’lumot.

Kirish. Xalq xunarmandchilik san’atining tarixi va uning rivojlarish bosqichlari. Xalq xunarmandchiligi san’ati sohasida Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari. Xududiy muammolar va ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlari. Fanning vazifalari.

O‘zbek milliy xalq xunarmandchiligi turlari

Xalqning turmush madaniyati va ma’nnaviyatini ko‘tarishda fanning tutgan o‘rnini. Xalq xunarmandchilik turlari, uning tarixi, rivojlanish bosqichlari va hozirgi vaqtidagi imkoniyatlari.

O‘zbek milliy xalq hunarmandchilik turlaridan zardo‘zlik san’ati

Zardo‘zlik san’ati tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, hozirgi ahvoli va imkoniyatlari. Zardo‘zchilik maktablari va ustalari. Zardo‘z mahsulotlari turlari va-

uni tayyorlashda ishlatiladigan hom-ashyo, jihoz va moslamalar. Zardo'zlikda ishlatiladigan naqshlarning ramziy ma'nolari.

O'zbek milliy xalq hunarmandchilik turlaridan kashtachilik san'ati

Kashtado'zlik san'ati tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, hozirgi ahvoli va imkoniyatlari. Kashtado'zlik maktablari va ustalari. Kashtachilik mahsulotlari turlari va uni tayyorlashda ishlatiladigan jihoz va moslamalar. Kashtachilikda ishlatiladigan naqshlarning ramziy ma'nolari. mahsulotlarini bezash yo'llari.

O'zbek milliy xalq hunarmandchilik turlaridan quroqchilik san'ati

Quroqchilik san'ati tarixi, quroq tikishga tayyorgarlik, gazlamalar xususiyatlari va ular bilan ishlash, naqsh gullari turlari, quroq tikish texnologiyasi, quroqchilik texnikasida tayyorlangan buyumlar.

Naqqoshlik va yog'och o'ymakorligi san'ati

Naqqoshlik va yog'och o'ymakorligi san'ati tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, hozirgi ahvoli va imkoniyatlari. Naqqoshchilik maktablari va ustalari. Naqqoshlik va yog'och o'ymakorligida naqsh atamalari. Naqsh solish texnologiyasi. Naqqoshlik va yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan asboblari, uskunalar va o'Ichov asboblari.

Ganchkorlik va kulolchilik san'ati

Ganchkorlik san'ati tarixi, O'zbekistonda ganch o'ymakorligi san'atining rivojlanishi, ganch o'ymakorligi turlari. Ganch o'ymakorlik maktablari va ustalari. Ganch o'ymakorlikda ishlatiladigan materiallar va asbob-uskunalar. Naqsh namunalari va kompozitsiya tuzish. Kulolchilik san'ati tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, hozirgi ahvoli va imkoniyatlari. Kulolchilik maktablari va ustalari. Kulolchilik mahsulotlari turlari.

Zargarlik, kandakorlik san'ati

Zargarlik san'ati tarixi, zargarlik buyumlari, zargarlikda ishlatiladigan materiallar va asbollar, zargarlik buyumlarini tayyorlash texnologiyasi, zargarlik maktablari va ustalari. O'zbek milliy kandakorlik san'ati tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, hozirgi ahvoli va imkoniyatlari. O'zbek milliy kandakorlik maktablari va ustalari. Kandakorlik mahsulotlari turlari va uni tayyorlashda ishlatiladigan hom-ashyo, jihoz va moslamalar. Mis buyumlarining turlari, badiiy bezak turlari.

Gilam, savat to‘qish san’ati

Gilam to‘qish san’ati tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, hozirgi ahvoli va imkoniyatlari. O‘zbek milliy gilamchilik maktablari va ustalari. Gilam mahsulotlari turlari va uni tayyorlashda ishlataladigan hom-ashyo, jihoz va moslamalar. Savatchilik xunari tarixi. Savat to‘qishda ishlataladigan hom-ashyo, jihoz va moslamalar. Savat to‘qish usulblari.

Amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etish boyicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Qo‘lda va mashinada kashta tikish. Qo‘lda kashta tikishda kashtado‘zning ish o‘rniii tashkil etish. Kerakli jihoz va moslamalar. Kashtado‘zlikda qo‘llaniladigan choklarni tikish usullari. Kashta tikish uchun tanlangan nusxani asos (gazlama) ga ko‘chirish usullari (ko‘chirgich qog‘ozdan foydalanish, tasvir konturi bo‘ylab qaviq tortish, qaviq konturi bo‘ylab teshiklar hosil qili shva u orqali kukun izi tushirish, yorug‘lik nusxa ko‘chirish). Milliy kashtado‘zlik maxsulotlaridan namunalar tikish. Ayollar va bolajlalar kiyimlarini kashta bilan bezash.
2. Tikuv buyumlarini zardo‘zlik usuli bilan bezash. Zardo‘zlik maxsulotlari turlari. Zardo‘zlikda qo‘llaniladigan jihoz va moslamalar. Zardo‘zlikda ishlataladigan chok turlari. Choynak g‘ilofi shaklini tanlash, uni moslamaga joylashtirish, bezak nusxasini tanlash va bezatish.
3. Do‘ppi tikish texnologiyasi. Do‘ppi tikishda ishlataladigan materiallar va bezak elementlar. Do‘ppi uchun asos, material shakli tanlash va o‘lchov olish. Do‘ppini bichib tyyorlash, tikish va bezatish.
4. Quroqchilik texnikasi. Quroq tikish usullari. Gazlama qoldiqlarini quroq tikishga tayyorlash. quroq kompozitsiyasini tuzish. Taxlama va yassi quroq tikish.
5. Naqqoshlik san’ati. Naqqoshlik san’atining o‘ziga xos xususiyatlari. Oddiy naqsh elementlari: oygul, barg, lolalarni chizish.
6. Oddiy naqsh namunalari: zanjira, bofta, guli raftori, bargli raftori, aylana islimi, boftali islimi, mehroqli islimalarni chizish.
7. Naqsh kompozitsiyalari: yo‘l ichiga naqsh chizish, uchburchak ichiga naqsh chizish, aylana ichiga naqsh chizish.
8. Naqsh kompozitsiyalarining nomlanishi va ularni o‘yish: uchburchak ichida naqsh kompozitsiyasini tuzish va chizish, to‘rburchak va aylana ichida naqsh kompozitsiyasini tuzish va chizish, yog‘och buyumlarga chizilgan naqshlarni ko‘chirish. Axta (ulchi) tayyorlash.
9. Nusxa ko‘chirish: kurschalar, panjaralar, qutichalarga naqshlardan nusxa ko‘chirish, oddiy va murakkab naqshlarning o‘yilishi, quticha, ramka, xontaxta oyog‘i, uchburchak, to‘rburchak va aylana ichida naqshlarni o‘yish, o‘yilgan naqshlarni pardozlash.
10. Yog‘och o‘ymakorligi san’ati, yog‘och o‘ymakorligida ishlataladigan asboblarni ishga sozlash va saqlash qoidalari. Yog‘och o‘ymakorligida

ishlatiladigan materiallar. Yod'ochga naqshlar o'yishda ishlatiladigan materiallar va asboblar.

11. Ganchkorlik san'ati. Ganch o'ymakorligida ishlatiladigan materiallar, asbob-uskunalar. Buyumga naqsh namunalarini chizish va yasash.
12. Kulolchilik san'ati. Kulolchilik maxsulotlari, ishlatiladigan asbob-uskunalar turlari. Buyumlarni yasash texnologiyasi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor o'qituvchilar tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqildi. Unda fanning asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim ko'nikmalarini va masalalarini yechish orqali yanada boyitadi. Shuningdek darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, o'quv materiallaridan foydalanish, ilmiy maqola va tezislarni chop ettirish, talabalar bilimlarini oshirish masalalarini yechish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'limenti tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ta'limenti tayyorlashda tuyannan fanning xususiyatlarini xisobga olgan xolda quyidagi shakklardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish.
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismlarini o'zlashtirish.
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishslash.
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash.
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish.
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish.
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalilanadigan o'quv mashg'ulotlari.
- masofaviy (distansion) ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. O'zbek milliy kandakorligi, uning tarixi va maktablari.
2. Zargarlik san'ati tarixi, uning rivojlanish bosqichlari.
3. Gilam to'qish san'ati tarixi va uslublari.
4. Savatchilik xunari tarixi.
5. Savatchilikda foydalilanadigan jihoz va moslamalari.
6. Savat to'qish uslublari.
7. Zardo'zlik san'ati tarixi, rivojlanishi.
8. Zardo'z ustalari va zardo'zlik maktablari.
9. Zardo'zlik ish o'rnini tashkil qilish.
10. Zardo'zlik san'atiga kerakli jihoz va moslamalari.
11. Zardo'zlik maxsuloti turlari.
12. Zardo'zlik maxsulotlarini tikish texnologiyasi.
13. Qo'lda kashta tikish san'ati.
14. Turli xalqlar kashtado'zligi.
15. Kashta turlari va mahsulotlari.